

2021- yil uchun Buxoro viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilda Buxoro viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 38 742,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yil bilan taqqoslaganda 6,2 % ga o'sdi .

YAHM deflyator indeksi 2020- yildagi narxlarga nisbatan 115,5 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 5,3 % ga yetdi.



**2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mird. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da</i>
	<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	
I. YAHM, jami	31 593,4	38 742,4	106,2
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	30 544,7	37 324,0	106,2
mahsulotlarga sof soliqlar	1 048,7	1 418,4	106,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	30 544,7	37 324,0	106,2
<i>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</i>	14 045,3	16 801,1	103,6
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	7 622,4	9 470,7	103,7
sanoat	5 186,4	6 319,2	100,1
qurilish	2 436,0	3 151,5	111,4
xizmatlar	8 877,0	11 052,2	112,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 205,3	2 667,6	108,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 586,4	2 136,4	124,0
boshqa xizmat tarmoqlari	5 085,3	6 248,2	110,5

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 19 746,4 ming so‘nni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 4,8 % ga yuqoridir.

**2020-2021- yillarda aholi jon boshiga hisoblangan
YAHM hajmi va o‘sish sur’atlari**

2020- yil

2021- yil

*Aholi jon boshiga
hisoblangan YAHM,
ming so‘m*

16 323,1

19 746,4

*Aholi jon boshiga
hisoblangan YAHM,
o‘sish sur’ati*

101,4 %

104,8 %

Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo’shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiyligi YAHMning 96,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,7 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 45,0 % ni, sanoat tarmog‘i 16,9 % ni, qurilish 8,4 % ni va xizmatlar sohasi 29,7 % ni tashkil qildi.




2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

	2020- yil	2021- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,7	96,3
mahsulotlarga sof soliqlar	3,3	3,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	46,0	45,0
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	25,0	25,3
sanoat	17,0	16,9
qurilish	8,0	8,4
xizmatlar	29,0	29,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,2	7,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,2	5,7
boshqa xizmat tarmoqlari	16,6	16,9

**2020-2021- yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)**



2020- yil




2021- yil

 **Yalpi qo'shilgan qiymat**

 **Mahsulotlarga soʻf soliqlar**

YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,6 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 45,0 %), sanoatda – 100,1 % (16,9 %), qurilishda – 111,4 % (8,4 %), xizmatlar sohasida – 112,5 % ni (29,7 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 108,6 % (7,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 124,0 % (5,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 110,5 % dan (16,9 %) iborat bo'ldi.

**2020-2021- yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilga nisbatan % da)**



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,6 f.p. (2020- yilda – 0,8 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,02 f.p. (2020- yilda – 0,3 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,9 f.p. (2020- yilda – 1,1 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,5 f.p. (2020- yilda – 0,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p.ga ko'paydi

2021- yilda YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2021- yilda YAHM deflyatori indeksi 2020-yildagi narxlarga nisbatan 115,5 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat sohasida – 121,7 % va qurilish tarmog'ida – 116,2 % qayd etildi.

2020-2021- yillarda YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



2021- yilda kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2021- yilda kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 75,4 %ni tashkil qildi (2020- yilda – 75,6 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

2020- yil 75,6 %

2021- yil 75,4 %